

MEHMONXONA XO‘JALIGIDA SERVIS FAOLIYATI SAMARADORLIGI KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING SWOT-TAHLILI

Xamitov Mubin Xabibjonovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Turizm” kafedrasи dotsenti v.b., PhD

Babamuradova Taxmina Ixtiyorovna

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va biznes kafedrasи” kafedrasи o‘qituvchisi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so‘zlari: turizm, mehmonxona, servis, servis sifati, samaradorlik, xizmat, xizmat ko‘rsatish, mijoz, integral ko‘rsatkich, soliq, sof foyda, SWOT-tahlili, kuchli tomon, kuchsiz tomon, imkoniyat, xavf.

Annotatsiya

Maqolada mehmonxona xo‘jaligida servis faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillarning swot-tahlili asosida tadqiqotlar olib borilgan hamda tegishli takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, mehmonxona xo‘jaligida xizmat ko‘rsatishning samaradorligiga ta’sir qiluvchi ko‘rsatgichlar va ularni aniqlash yo‘llari keltirilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Iqtisodiyot fanida hozirgi paytda samaradorlik va uni baholash muammosiga katta ahamiyat berilmoqda, chunki samaradorlikni o‘rganishga bo‘lgan zaruriyat uning qaror qabul qilish va baho berish jarayonida asosiy omil sifatida qo‘llanishi bilan bog‘liq. Turizmning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan olinadigan foyda (iqtisodiy samara) bilan belgilanadi:

- turizmni mamlakat miqyosida tashkil etish;
- xorijiy turistlarga va mintaqqa aholisiga turistik xizmat ko‘rsatish;
- turistik firmaning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni.

Turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligining iqtisodiy samaradorligi ijtimoiy mehnat samaradorligining tarkibiy qismi bo‘lib, u muayyan mezon va ko‘rsatkichlar yordamida ifodalanadi. Samaradorlikni baholashga bo‘lgan quyidagi bir nechta yondashuvlarning mavjudligini ta’kidlab o‘tish joizdir:

- samaradorlikning foyda, rentabellik, tannarx (boshqarish tizimi uchun bu kabi ko‘rsatkichlar qatoriga adaptivlik, ishonchlilik kiradi) kabi alohida muayyan ko‘rsatkichlari ishlataladi;
- samaradorlik ko‘rsatkichlar tizimi qo‘llaniladi – samaradorlikning muayyan tomonlarini aks ettiruvchi bir qancha xususiy ko‘rsatkichlar;
- samaradorlikning integral (umumlashtiruvchi) ko‘rsatkichlari shakllantiriladi.

Shundan kelib chiqib, turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi samaradorligini ko‘rsatuvchi mezonlarni uch jihatga ko‘ra (jumladan, jamiyat darajasida-xalq xo‘jaligi, tarmoq darajasida, alohida turistik firma va mehmonxona xo‘jaligi darajasida) o‘rganish lozim. Amaliyotda turistik korxona faoliyatining samaradorligini aniqlab beradigan ko‘plab ko‘rsatkichlar mavjud. Biroq bunday ko‘rsatkichlarning ko‘pchiligi ba’zi hollarda munozarali bo‘lganligi sababli, yagona xulosaga kelish va aniq qaror qabul

qilish qiyin kechmoqda. Ko'rsatkichlarning barchasiga bir paytda murojaat qilishning iloji yo'q va tahlil jarayonida ayrim tadqiqotchilar u yoki bu ko'rsatkich haqidagi shaxsiy tasavvuri ta'sirida ham bo'lishi mumkin.

Mehmonxona xo'jaligidagi faoliyat samaradorligining eng muhim ko'rsatkichi foyda bo'lib, u xizmat ko'rsatuvchi tashkilot faoliyatining natijalarini - ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va tarkibini, mehnat unumdorligini, harajatlar darajasini, ishlab chiqarish bo'limgan harajatlarning mavjudligini, yo'qotishlar va boshqalarni aks ettiradi.

Mehmonxona xo'jaligida servis faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- mehmonxona xo'jaligining servis faoliyati samaradorligini tezkor baholash;
- ko'rsatilgan xizmatlarning alohida turlari uchun olingan foyda miqdoriga ta'sir qiluvchi omillarni o'z vaqtida aniqlash;
- xizmatlarning tannarxini aniqlash va rentabellikni hisoblash uchun zarur bo'lgan harajatlar (tarqatish harajatlari) va ularning o'zgarish tendensiyalarini aniqlash;
- servis faoliyati va foyda samaradorligini oshirishning eng optimal usullarini topish.

Mehmonxona xo'jaligida servis faoliyatining foydasi uning barcha daromadlari va harajatlari o'rtaqidagi farq sifatida hisoblanadi. Xizmatlarni ko'rsatishdan olingan foyda (operatsion yoki yalpi foyda), soliqqa qadar foyda va soliqdan keyingi foyda (sof foyda) o'rtaqidagi farqni ajratib ko'rsatish.

Soliqdan keyingi foyda (sof foyda) boshqa rejalshtirilgan va rejalshtirilmagan daromadlar va harajatlarni hisobga olgan holda hisoblanadi. Rejalshtirilgan harajatlarga respublika va mahalliy byudjetlarga to'lanadigan soliqlar kiradi. Rejadan tashqari harajatlarga shartnomalar majburiyatlarini buzganlik uchun to'lanadigan jarimalar, penyalar va umidsiz qarzlarni hisobdan chiqarishdan ko'rildigan zararlar va operatsion foydani kamaytiradigan boshqa yo'qotishlar kiradi. Rejadan tashqari daromadlarga turli tashkilotlardan olingan jarimalar, penyalar va jarimalar, inventarizatsiya paytida aniqlangan ortiqcha moddiy boyliklar, cheklash muddati tugaganidan keyin kreditorlik qarzlarini hisobdan chiqarish va boshqalar kiradi.

Mehmonxona xizmatlarini ko'rsatishdan olinadigan foydaga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining o'zgarishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibining (turlarining) o'zgarishi, xizmatlar narxlarining o'zgarishi, materiallar, tariflar, ishchi kuchi narxlarining o'zgarishi kabi turli xil omillar va boshqalar ta'sir qiladi.

Tadqiqot natijasida mehmonxona xo'jaligida xizmat ko'rsatishning samaradorligini o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ko'rsatgichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Uning tarkibiga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritish va ularni aniqlash yo'llari taklif etildi (1-jadval).

1-jadval. Mehmonxona xo'jaligida xizmat ko'rsatishning samaradorligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatgichlar va ularni aniqlash yo'llari¹

| T/r | Ko'rsatkichlar | Hisoblash usullari | Izoh |
|-----|---|--------------------|--|
| 1. | Xizmatlarni ko'rsatishdan olingan foyda iste'molchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromad va ushbu xizmatlarning narxi o'rtaqidagi farq sifatida aniqlanadi. | $F_x = T_x - N_x$ | F_x - xizmatlar ko'rsatishdan olingan foyda; T_x - xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushum miqdori; N_x - xizmatlar tannarxi. |

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan jamlangan.

| | | | |
|----|---|---|--|
| 2. | Foydaning umumiy o‘zgarishi turli omillar ta’sirida foydaning o‘zgarishidan iborat (ΔF_x) | $\Delta F_x = \Delta F_{xn} + \Delta F_{xs} + \Delta F_{xt} + \Delta F_{xi} + \dots + \Delta F_{xo}$ Bunda ΔF_{xo} - i-ro omili ta’sirida foydaning o‘zgarishi hisoblanadi | ΔF_{xn} - ko‘rsatilayotgan xizmatlar narxlarining o‘zgarishi natijasida foya miqdorining o‘zgarishi; ΔF_{xs} - ko‘rsatilayotgan xizmatlar soni (hajmi) o‘zgarishi hisobiga foya miqdorining o‘zgarishi; ΔF_{xt} - ko‘rsatiladigan xizmatlar hajmining o‘zgarishi natijasida ularning tarkibi o‘zgarishi sababli foya miqdorining o‘zgarishi; ΔF_{xi} - ko‘rsatilayotgan xizmatlar tannarxini pasaytirishdan iqtisod qilish hisobiga foya miqdorining o‘zgarishi. |
| 3. | Mehmonxona xo‘jaligi boshqaruvi tashkiliy tuzilmasi samaradorligining koeffitsiyenti | $K_s = N_b \div M_s$ | N_b - boshqaruvining tashkiliy tuzilmasi faoliyatidan olingan natija; M_s – boshqaruvga sarflangan mablag‘ (maosh fondi, xonalarni saqlashga sarflangan mablag‘, uskunalar xarid qilish va tuzatishga sarflangan, boshqaruv tizimi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni qabul qilish va uzatishga sarflangan mablag‘ va h.k.). |
| 4. | Mehmonxona ishchi kuchining samaradorligi | $IK_s = X_h \div X_{b.s.}$ | Mazkur ko‘rsatkich bir nafar ishchiga to‘g‘ri keladigan xizmat hajmini ifodalaydi. |
| 5. | Bir mehmonxonaga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi | $X_{h.(1\ meh)} = X_h \div X_{meh.s.}$ | Ushbu ko‘rsatgich bir mehmonxonaga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmini ifodalaydi. |
| 6. | Mehmonxona boshqaruvi samaradorligini aniqlashning eng yaxshi usuli integrallashgan ko‘rsatkich | $K_{b.s.} = 1 - M_b \times X_s \div F_t \times F_q$ | $K_{b.s.}$ - boshqaruv samaradorligi koefsiyenti; M_b - boshqaruvga sarflanadigan mablag‘, u boshqaruv xodimining bittasiga to‘g‘ri keladi; X_s - korxona xodimlarining umumiy soni bilan tashkiliy-iqtisodiy tizimida band bo‘lgan xodimlar sonining solishtirma miqdori; F_t - fond bilan ta’minlanganlik (bitta xodimga to‘g‘ri keladigan asosiy va aylanma mablag‘lar qiymati); F_q - fond qaytimligi (asosiy va aylanma fondlar birligiga to‘g‘ri keladigan shartli sof mahsulot). |

Shuningdek, tadqiqot jarayonida Samarqand viloyati turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarning rivojlanish samaradorligini aniqlashda SWOT-tahlil usulini qo‘llashni lozim topdik. Ushbu usul orqali turizm sohasining ichki va tashqi muhit omillarini belgilashda (kuchli va kuchsiz tomonlari), turizm rivojlanishi va mehmonxona servis xizmatlarida salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatarlari va ular ta’sirini bartaraf etuvchi imkoniyatlар aniqlandi (2-jadval).

**2-jadval. Samarqand viloyati turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarining rivojlanish
samaradorligini aniqlashning SWOT–tahlili**

| KUCHLI TOMONLARI | KUCHSIZ TOMONLARI |
|--|---|
| I. Viloyatning jozibadorligi | |
| O‘zbekiston hududlari orasida Samarqand viloyatida eng ko‘p (562 ta) arxitektura yodgorliklari mavjud, noyob tabiiy ob’ektlar (milliy qo‘riqxonalar, daryolar, tog‘lar, havzalar), boy madaniy-tarixiy meros, mahalliy aholining mehmondo‘stligi. Hozirgi kunda viloyatimizda oilaviy mehmon uylarining (217 ta) mehmonxonalar sonidan ustunligi (171 ta) qulay geografik joylashuvi, transport aloqalarning rivojlanganligi | viloyatning ayrim tog‘ oldi xududlar infratuzulmasining qoniqarsiz xolati ekoturizmni rivojlantirishga xalaqit berishi; tarixiy obidalarning buzilishi va yemirilishi; Turizm bo‘yicha raqobatli xududlarning mavjudligi (Toshkent sh., Buxoro viloyati, Xiva shahri va boshqalar). |
| II. Turizm ob’ektlari | |
| Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan Shanxay hamkorlik tashkilotining sammiti doirasida <i>Silk Road Samarkand</i> majmuasi tarkibidagi ikkita mehmonxona qurilmoqda birinchi Samarkand Regency Amir Temur 233 xonali, shu jumladan, ikkita prezidentlik apartament va lyuks kategoriyaligida nomerlar. Bu LHW (The Leading Hotels of the World) jahoning yetakchi mehmonxonalar assotsiatsiya-siga kiritilgan Markaziy Osiyodagi birinchi va yagona mehmonxona bo‘ladi. Ikkinchisi otel 241 nomeraga mo‘jal-langan Silk Road by Minyoun. Igor Savitskiy nomidagi “Savitsky Plaza” mehmonxonasi 4* toifali va 175 ta xonaga ega va Temuriylar davridagi buyuk astronom va matematik Lia! by Minyoun Stars of Ulugbek nomli 170 nomerli shu kategoriyaligida otel toifasiga kiradi. Birlashgan millatlar tashkilotining Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasi 2023 yilda Samarqand shahrida o‘tkazilishi natijasida Samarqand Butunjahon turizm poytaxtiga aylanishi kutilmoqda. Samarqand tumanidagi Konigil qishlog‘i respublikada birinchilardan bo‘lib “Turizm qishlog‘i” tashkil etilgani. Qadimgi shaharlar, tarixiy yodgorliklar va madaniy meros ob’ektlari; tarixiy va zamonaviy arxitektura inshootlari; muzey va qo‘riqxona ob’ektlarining mavjudligi. | mehmonxona va sog‘lomlashtirish, dam olish ob’ektlarining yetishmasligi, ko‘plab turistik ob’ektlarning o‘ta eskirganligi; namoish etiladigan alohida ob’ektlarning mavsumiyligi; ko‘plab turistik ob’ektlarda qo‘shimcha tovar va xizmatlarning yo‘qligi. |
| III. Xizmatlar va xizmat ko‘rsatish | |
| Samarqandni keyingi besh yil ichida ziyorat turizmi bo‘yicha dunyoning eng yaxshi o‘nta destinatsiyalaridan biri bo‘lishiga zamin | Mehmonxonalarda qo‘shimcha xizmat va servisning past darajasi; turistik mahsulotning bahosiga nisbatan |

| | |
|---|---|
| <p>yaratilgani. malakali gidlar va tarjimonlar, animatorlarning mavjudligi; turistik mahsulotning xilma-xilligi va ko‘pligi; turistik mahsulotni iste’molchining daromadlariga qarab tayyorlash.</p> | <p>sifatning nomutanosibligi; turistik mahsulot sifati xaqida potensial iste’molchiga noto‘g‘ri ma’lumot berish; sog‘lamlashtirish va dam olish xizmatlarining kamligi turistlar bo‘sh vaqtini tashkil etishning sustligi. marketing samaradorligining pastligi</p> |
| IV. Xodimlarning kasb mahorati | |
| <p>turizm texnikumi va kollejining mavjudligi,o‘rta bug‘undagi menejerlar kasb mahoratining yuqori darajasi; turizm bo‘yicha ixtisoslashgan o‘quv dargohlarlardagi “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti va Samarqand iqtisodiyot va servis instituti proffesor-o‘qituvchilarning yuqori salohiyati; hukumat, fan va biznes vakillari ishtiroyqida ilmiy-amaliy xalqaro konferensiylar va simpozimlarning o‘tkazilishi.</p> | <p>turizm va mehmonxona sohasida ishslash tajribasi yetarli emasligi; mehmonxona va turistlarni joylashtirishning boshqa vositalaridagi xizmat ko‘rsatuvchi hodimlarning sohasi bo‘yicha ma’lumotining yo‘qligi; turistik firmalar menejerlarda maxsus (o‘rta, oliv) ma’lumotning yo‘qligi.</p> |
| V. Qulaylik va shinamlik | |
| <p>Samarqand viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida Samarqand shahridagi piyodalar yo‘laklarini ta’mirlash, shahar atrofi va shahar ichida veloyo‘laklar tashkil qilindi. qulay avtobuslar, mehmonxonalar, ovqatlanish joylarining mavjudligi; barqaror siyosiy ijtimoiy vaziyat;</p> | <p>qulay transport, mehmonxonalar, ovkatlanish joylari asosan turistlarning kichik guruhlari uchun muljallangan; VIP-turistlar uchun mo‘ljallangan joylarning kamligi; sanitariya va gigiyenaning past darajasi; ayrim tadbirkorlarning vijdonsizligi.</p> |
| IMKONIYATLAR | |
| I. Xalqaro munosabatlarda | |
| <p>investitsion jozibadorlik; xorijda aniq iste’molchilarining mavjudligi; xorijiy hamkorlar bilan aloqalar; jaxon tajribasini egallah.</p> | <p>bozorga kuchli mashxur brendlari mehmonxonalarning kirib kelishi kuchsiz tomoni mavjud mehmonxonalarning inqirozga uchrashi; turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha faoliyatning sust tashkil etilganligi; turistik biznes yuritishning past madaniyati; ikki tomonlama loyihalarni amalga oshirishda byurokratiya, san-salorlik.</p> |
| II. Geosiyosiy | |
| <p>qulay geosiyosiy joylashuvi; turistik mahsulot asosiy iste’molchilarining yaqinligi (Toshkent, Buxoro va Xiva shaharlari);</p> | <p>O‘zbekistonidagi siyosiy muxit xaqidagi noto‘g‘ri tasavvur; Samarqand viloyatga chegaradosh viloyatlarning rivojlanayotgan turistik bozorlari; Qo‘shni mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy notinchligi.</p> |
| III. Iqtisodiy | |
| <p>tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan sanoati va qishloq hujaligi;</p> | <p>MDH mamlakatlardan keladigan katta harajat qiladigan turistlar sonining kamligi;</p> |

| | |
|---|---|
| <p>viloyat byudjetiga soliq tushumlarning ko‘payishi.</p> | <p>viloyatning iqtisodiy erkinligi quyi darajadaligi; turizm sohasining mahalliy hokimiyat tomonidan yetarli darajada moliyalashtirilmaganligi; iste’molchilarning talab va didining o‘zgarishi. turizm xizmatlariga aholi talabining past to‘lov qibiliyati.</p> |
| IV. Huquqiy | |
| <p>turistik xizmat ko‘rsatish haqida shartnomalarni tuzish xuquqiy asosda amalga oshiriladi; turoperatorlarning moliyaviy javobgarligi va sug‘urta kafolatlari; turizm va mehmonxona beznisini rivojlanishida mahalliy davlat organlarining hamkorligi va turizm sohasida davlat siyosatining kuchayishi.</p> | <p>Milliy turizm va mehmonxona qonunchiligi hamda tegishli me’yoriy hujjatlarning takomillashmaganligi; Nizolarni tezda hal qilish va kasbiy yuridik yordam olishning murakkabligi.</p> |
| V. Ilmiy-texnik | |
| <p>Turizm sohasi bo‘yicha kuchli ilmiy salohiyat; ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlarining mavjudligi (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti va “Ipak yo‘li” xalqaro turizm va madaniy meros universiteti)</p> | <p>Raqamlashtirishda axborot va ma’lumotga ehtiyoj va kommunikatsion muxitning sustligi; strategik menedjmentning yo‘qligi va marketingning past darajasi; turfirmalar moddiy-texnik bazaning eskirganligi.</p> |

SWOT-tahlil natijasida Samarqand viloyati turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarning rivojlanish samaradorligining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- keng va jozibador tabiiy hududlar hamda boy tarixiy-madaniy meros bilan belgilanuvchi yuqori darajadagi turistik salohiyat;
- hukumat, tadbirkorlar va hokimiyat idoralari xodimlarining xalqaro va mintaqalararo hamkorlikka ochiqligi;
- turmahsulotni realizatsiyasi va reklamasi;
- an’anaviy milliy mehmondo‘stlik qadriyatları.

Ushbu omillar quyidagi tashqi muhit imkoniyatlari bilan mustahkamlanishi tavsiya qilindi:

- Samarqandning qulay geosiyosiy holati va hamkorlikka intilish istagi;
- hududdagi turizm sohasidagi faol davlat siyosati;
- turizm sohasi bo‘yicha ilmiy-ta’lim va o‘quv dargohlarining rivojlangan tarmog‘i;
- viloyatdagi axborot va telekommunikatsiya tizimlarining jadal sur’atlar bilan rivojlanayotganligi;
- turli tarmoqlarning ishlab chiqarish salohiyati, turizmni rivojlanishida ularning qiziqishining ortishi.

Turizm faoliyatining aniqlangan muhim imkoniyatlari hamda kuchli tomonlari uni rivojlantirish resurslari va shartlarini belgilab olish imkonini berdi:

- tajriba ortirish uchun turizmning xalqaro amaliyotini qo‘llash;

- ilmiy-asosli tizimli yondashuvga asoslangan turizm sohasini boshqarishning klaster usullarini joriy etish;
- turistik-mehmonxona bozorining nazorati va faoliyati amaliyotida yangi axborot texnologiyalarini joriy etish, yagona viloyat axborot muhitini yaratish va uni mintaqalararo va xalqaro marketing tarmog‘iga integratsiyalash;
- hamkorlikda turistik mahsulotlar yaratishda, menejment va marketing asosida transchegaraviy va transmintaqaviy turmarshrutlar ishlab chiqish orqali Toshkent va Samarqand shaharlarining yaqin va uzoq xorijdan turistik oqimini oshirish.

Tashqi va ichki muhit omillarining tahlili, rivojlanish imkoniyatlari va kuchsiz tomonlarning sintezi shuni aniqlash imkonini berdiki, xalqaro investitsiya resurslarini jalb qilish, turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarining rivojlanish samaradorligini oshirishda sohaning boshqarish tizimi va qonunchiligini takomillashtirish, axborot texnologiyalarini joriy qilish, ilmiy, ta’lim va turli tarmoqlarning ishlab chiqish salohiyatini hamkorlikka jalb qilish hisobidan turistik-rekreatsiya sohasining hal qiluvchi quyidagi salbiy omillarini bartaraf etish mumkin bo‘ladi:

- sifatli va turli barcha mavsumiy turmahsulotni yaratish hisobidan marketingli siyosat samaradorligini oshirish;
- mehmonxona xo‘jalogining axborot qulayligini oshirish;
- turizm sohasi va mehmonxona faoliyatining yetarlicha investitsion jozibador bo‘lmagan holatini yaxshilash;
- turizm sohasi va mehmonxona xo‘jalogining strategik menejment va marketingi tizimini doimiy takomillashtirish;

Kuchsiz tomonlar va xavflarning omilli tahlili va sintezi yordamida aniqlangan Samarqand viloyati turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlari rivojlanishining quyidagi asosiy to‘siqlariga alohida e’tibor qaratmoq lozim, deb hisoblaymiz:

- ichki aylanma mablag‘lar yetishmasligi natijasida turizm sohasining rivojlanmaganligi, xususiy investitsiyalar hamda respublika moliyalashtirishida davlat kafolatining yetarli darajada mavjud emasligi;
- mintaqqa iqtisodiyotida turizm sohasi va mehmonxona faoliyatining ta’sirini aniq baholanmaganligi natijasida YAHM dagi ulushining pastligi;
- tarmoq rivojiga mahalliy o‘zini boshqarish organlari ishtiroki ulushining pastligi;
- Samarqand viloyatini qulay turizm mintaqasi sifatida ko‘rsatishda turistik biznes tashabbusining yetarli darajada bo‘lmaganligi;
- mintaqaning sust rivojlangan turistik infratuzilmasi.

SWOT tahlili asosida Samarqand viloyati turizm sohasi va mehmonxona xo‘jaligi xizmatlarini rivojlanish samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimi ishlab chiqildi va aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha quyidagi tizimli chora-tadbirlar taklif qilindi:

- hududda ichki turizm salohiyatini chekllovchi muammolarni tadqiq qilish, yangi turistik marshrutlarni yaratish hamda mavjud yo‘nalishlarni xavfsiz turizm nuqtai nazaridan rivojlantirish;
- mehmonxona xo‘jaligida raqamlashtirish xizmatlarini joriy qilish, aqli va yashil texnologiyalarni amalda qo‘llash;
- turizm faoliyati va madaniy meros sohasida ilmiy, ta’lim, innovatsion va investitsion hamkorliklarni rivojlantirish;

- mehmonxona va shu kabi joylashtirish vositalari haqida umumiy ma'lumotlar bazasini yaratish (manzili, to'la faoliyati haqida sayti, tarixi) tarixiy obida va mehmonxonalarни elektron haritada joyini ko'rsatish(geolokatsiya) va ular haqida sayexlar va turistlar ta'surotlari asosida reyting ko'rsatgichlarini ishlab chiqish;
- turizm sohasi va mehmonxona xo'jaligini rivojlantirish masalalariga mahalliy hokimiyat organlari rahbarlari e'tiborini oshirish va ular tomonidan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratdbirlarni qabul qilish;
- Samarqand viloyatida sog'lomlashtirish va dam olish xizmatlarining yetishmasligi tufayli yangi, zamonaviy turizm shaharlarini tashkil qilish.

Ushbu Samarqand viloyatida aniqlangan muammolar tizimli harakterga ega bo'lib, ularning yechimi olimlar, boshqaruvchilar, tadbirkorlar, turistik firma va mehmonxona rahbarlarining muvofiqlashtirilgan hamkorona harakatlari orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltabayev M.R, Tuxliyev I.S. va b. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. T.: Fan vatexnologiya 2018 y.
2. Pardayev M.Q., Xaliqulov A.N. Iqtisodiyot sub'ektlarida omilli tahlilni takomillashtirish. Monografiya. T.: "Navro'z" nashriyoti – 2014. – 240 bet.
3. Muhammedov M.M. "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish - ustuvor masala // – «SERVIS». Ilmiy-ommabop jurnal. 2009 yil, 1–son. 53 b.
4. Xamitov M.X. Mehmonxona xo'jaligida servis faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – S.: SamISI, 2023 y. - 157 b.
5. XM Xabibjonovich (2022.) Organizational principles of number fund management in improving service in hotel farming. International Journal on Integrated Education; Vol. 4 No. 3 (2021): IJIE ; 472-475.
6. Khabibjonovich, K. M. . (2024). Evaluation of Service Quality in the Hotel Industry and Determination of Factors Affecting the Level of Customer Satisfaction. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(5), 356–362.
7. Khabibjonovich, K. M. . (2024). Directions for the Development of Digital Services in the Hotel Industry. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(5), 363–369.